

“YEVROSIYO” MINTAQASI LANDSHAFTI REYETROPROSPEKTIV TAHLIL

Tog'ayeva Dilnoza Miraxmatovna

O'zbekiston davlat jahon tillari unversteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Yevrosiyo mintaqasida taraqqiy etayotgan siyosiy jarayonlar turli xil munosabatlarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Birgina misol, XIV asrda hukumronlik qilgan Amir Temur davriga nazar soladigan bo'lsak, zamonsining o'ziga xos rivojlanishi bo'lsada, xalqni erkin-farovon yashashi uchun tashqi omillarning ta'sirini nazorat qilgan. G'arb va Sharqni bog'lab turuvchi Buyuk ipak yo'lining ahamiyati nechog'lik muhimligi aks ettirilgan. Shu asnoda, Amir Temur hukumronlik qilgan mintaqasida siyosiy daholigi sababli barqarorlikni ta'minlagan.

Kalit so'zlar: Yevrosiyo, turkiy xalqlar, Buyuk ipak yo'li, G'arb, Sharq sivilizatsiyasi, zona, mintaqa, Amir Temur.

Аннотация. Развивающиеся политические процессы в Евразийском регионе вызывают укрепление различных отношений. Всего лишь один пример, если мы посмотрим на эпоху Амира Темура, который правил в 14 веке, он контролировал влияние внешних факторов, чтобы люди могли жить свободно и комфортно, хотя это было уникальное развитие его времени. Отражено значение Великого Шелкового пути, соединяющего Запад и Восток. В то же время Амир Темура благодаря своему политическому гению обеспечивал стабильность в управляемом им регионе.

Ключевые слова: Евразия, тюркские народы, Великий Шелковый путь, Запад, восточная цивилизация, зона, регион, Амир Темура.

Annotation. The developing political processes in the Eurasian region are causing the strengthening of various relations. Just one example, if we look at the era of Amir Temur, who ruled in the 14th century, he controlled the influence of external factors in order for the people to live freely and comfortably, even though it was a unique development of his time. The importance of the Great Silk Road, which connects the West and the East, is reflected. At the same time, Amir Temur ensured stability in the region he ruled due to his political genius.

Key words: Eurasia, Turkic peoples, Great Silk Road, West, Eastern civilization, zone, region, Amir Temur.

Yevrosiyo mintaqasi nima o'zi qachon vujudga keldi. Uning ahamiyati nimadan iborat davlatchilik tarixida. Buyuk ipak yo'lining Vizantiya imperiyasi tomonidan boshlangan va Xitoy bilan oxirgi nuqtada ulangan Ipak yo'li o'rtasida ko'plab imperiyalar vujudga keladi. Nima uchun ularda ixtiloflar vujudga keladi. Vizantiya bilan Xitoyning o'rtasi "Yevrosiyo" qitasi bo'lib hisoblanadi. Vizantiya o'zining mollari va tovarlari, sanoatning rivojlanishi, madaniyatning rivojlanishi, yangi texnologiyalarning vujudga kelishi ikkita qitaning madaniyatini uyg'unlashuviga sabab bo'ladi. Sharq bilan G'arbning uyg'unlashuvi natijasida o'rtada Yevrosiyo madaniy mintaqasi vujudga kelishiga asosiy sabab bo'ladi. Yevrosiyo mintaqasida yagona madaniy, yagona savdo-sotiq aloqalari xalqlarning birlashuviga ham xizmat qiladi. Misol tariqasida keltirilganda qog'ozning Xitoyda kashf qilinishi G'arbning rivojlanishiga hissa qushadi. XIV asrda G'arb va Sharqning siyosiy vaziyatini ma'lum bir darajada tartibga solgan podshoh Amir Temurning siyosiy potertiga nazar solish muhim hisoblanadi. Sohibqiron Amir Temurning geosiyosati, harbiy strategiyasi, davlat boshqaruvidagi adolati va siyosati natijasi o'laroq Yevrosiyo mintaqasining katta qismini idora yetishga sabab bo'ldi.

Zero, bu davlat hududi, siyosiy-harbiy qudrati, ma'rifat va adolatga tayanib boshqarilishi jihatidan jahon davlatchiligi madaniyati tarixida salmoqli o'rin egallaydi. Yevrosiyo mintaqasida

Amir Temur shaxsiga bo'lgan qiziqish garchi oradan salkam olti yuz yildan ko'proq vaqt o'tgan bo'lsa-da, bugungi kunda ham so'ngani yo'q. Ayni paytda xorijning yetakchi ilmiy-o'quv markazlarida Amir Temurning davlat qurish va uni boshqaruvi, moliya va soliq siyosati, qo'shin tuzish, uning ta'minoti, harbiy yurishlaridagi muvaffaqiyatlari kabi yo'nalishlar keng o'rganilmoqda.

Yevrosiyo mintaqasi va G'arb davlatlarida Amir Temurning strategik konseptlari haqida adabiyot va manbalar o'rganilmoqda. Birgina, Fransiya davlatida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar Amir Temurning jahon sahnasida o'chmas iz qoldiganligidan dalolat beradi. Ayniqsa, G'arbiy Yevropa temurshunosligidagi ilmiy tadqiqotlar aksariyati Amir Temurning Yevropa taqdirida ahamiyat kasb etganligi va uning roli jahon tarixida tutgan o'rnini asoslash kabi ustuvor yo'nalishlarda olib borilmoqda. Shuning uchun bunday siymolarning say-harakatlari yangi-yangi avlodlar e'tiborini katta kuch bilan o'ziga jalb etishi mutlaqo tabiiydir. So'nggi yillarda yurtimizda Amir Temur va Temuriylar qoldirgan merosni har tomonlama o'rganish, tadqiq etish davlat ahamiyatiga molik masalalardan biriga aylangan. Amir Temur shaxsiga bo'lgan hurmat va ehtirom yanada ortmoqda. Natijada O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti tomonidan 1995 yil Xalqaro Amir Temur jamg'armasi tashkil etildi. 1996 yil Amir Temur yili deb e'lon qilindi hamda shu yili Amir Temur va Temuriylar tarixiga bag'ishlangan ulkan Temuriylar tarixi Davlat muzeyi Toshkentda barpo etildi. Shu bilan birga davlat siyosiy boshqaruv sistimasida davlat manfaatlarini yuqori darajada e'zozlagan va xizmat qilganlarga Amir Temur ordeni ta'sis etildi. Binobarin, Toshkent, Samarqand va qator xorijiy davlatlarda YUNESKO shafeligida Sohibqiron tavalludining 660 yilligi keng nishonlandi. Shuningdek, Samarqand, Qashqadaryo, Toshkent hududlarida Amir Temur haykali qad rostladi.

O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "Men har bir askar, Vatanning har bir posboni Amir Temur va ulug' lashkarboshilarimiz o'g'itlarini, ularning harbiy merosini chuqur bilishi kerak, deb qayta-qayta ta'kidlab kelaman. Bu o'lmas va bebaho meros hozirgi kunda ham har birimizning qalbimizga cheksiz g'urur baxsh etadi, muqaddas tuprog'imizga sadoqat tuyg'ularini kuchaytiradi" [1]deya yurt o'g'lonlariga murojaat etgan edi. Bundan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasining har bir o'g'il farzandi ajdodlariga munosib mard, jasur, komil farzand bo'lishlari uchun bir qancha shart-sharoitlar yaratib bermoqda.

Amir Temurning Yevrosiyo mintaqasida olib borgan geosiyosati bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. "G'arb-Sharq" yo'nalishlari geosiyosiy vaziyatga ko'ra, uzoq muddatli, uzluksiz quruqlik mintaqasi orqali hamkorlik aloqasini ta'minlashga qodir. Darvoqe, bu mintaqalar: Shimol, Janub, G'arbiy Yevropa, Sharqiy Osiyo, Rossiya-Janubiy Osiyo mintaqalarining geosiyosiy ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyasi asosida tashkil qiladi [2, B. 114]. Yevrosiyo mintaqasining geosiyosiy kompleksiga geosiyosiy, geoiqtisodiy, madaniy, ijtimoiy munosabatlarni qamrab olgan.

XIV-XV asrlarda hukmronlik qilgan Sohibqiron Amir Temur imperiyasi Yevrosiyo mintaqasining katta qismini: Markaziy Osiyo, Kichik Osiyo, Kavkaz hududlari: Movoraunnahr, Xorazm, Xuroson, Markaziy Kavkaz, Eron, Panjob hududlarini egallagan edi. Sohibqiron Amir Temur harbiy yurishlarida geosiyosiy hisob kitoblardan kelib chiqib yondashgan va hukmronlik qilishni istagan hududning xaritasini va geografik tuzulmasini yaxshi tuzgan. Buyuk Amirning o'ttiz yil davomida harbiy siyosiy harakatlariga diqqat qaratadigan bo'lsak, Yevrosiyo hududini uch umumiy markazga bo'lgan "aylanma" zonadan iborat [3]. Shu asnoda Sohibqironning qudratli davlat qurishga intilganligini ko'rishimiz mumkin.

Birinchi zona–O'rta Osiyo, Sharqiy Xuroson, Orol, Kaspiy dengizi, Balxash ko'li, Tyan–Shan tog' tizmasi va Hindikush o'rtasida joylashgan imperiya bo'lib, uning "yadrosi"–mahalliy aholisi hisoblangan. Ularning barqarorligini ta'minlash, "Tuzuklar" qonuniyat kitobini ustuvor

yo'nalishlari hamda adolatini o'rnatishga harakat qilish uchun metastrategiya qo'lladi va umumbashariy qonuniyatlarni e'zozlagan tarzda ushbu zonaga targ'ib qila boshladi.

Ikkinchi zona–Yevrosiyo mintaqasining beshta daryo oralig'i hududlari: Ural–Volga, Ob–Irtish, Dajla va Frot, yana Hind Gangasi va Xuanxi va Yansizi daryolarining ma'lum bir qismigacha bo'lgan hududlarni faol tarzda nazorat qildi. Amir Temur beshta daryo hududini birlashtirish uchun bir qancha geostrategik kurashlar va harakatlar olib borganligini tarixdan bilamiz, vaholanki, ushbu ulkan mintaqaning markazi ya'ni “yadro”si sifatida O'rta Osiyoni ko'ra olganligini guvohi bo'lamiz. Yevrosiyo mintaqasining “belbog'i” deb, O'rta Osiyoni hisoblagani yaqqol namayon bo'ladi. Geosiyosiy nazariyalarda XIV asrda Turon sultonining geostrategik nazariyasi kabi bo'lsa, XXI asr siyosatshunos olimlar tomonidan ilmiy nazariyalar olib borildi va Markaziy Osiyoning belbog'i (yuragi) “hardland” deya Amir Temur hukumronligining markazi bo'lgan mintaqaga nisbatan dunyo siyosiy maydonida bong urdi. Ya'niki, bugun “hardland” deb nomlangan hudud O'rta Osiyoning butun Yevrosiyo bilan bog'lab turadigan koridor hisoblanadi. XXI asr Markaziy Osiyo ya'ni, Yevrosiyaning markaziy qismi hisoblangan geosiyosiy poligon (hardland) sifatida siyosiy atama shakllandi va ushbu hudud beshta daryo hududiy mintaqasini birlashtira olgan geosiyosiy koridor hisoblanadi. Darvoqe, Amir Temur kuchli quruvchan va shijoatli shaxs edi. Shu bilan birga, u xushyor pragmatik shaxs ham edi. Dastlab u o'z oldiga dunyo hukumronligini maqsad qilmagan edi. Ammo, uning atrofida g'ildirakning uzoqni ko'ra olmasligi, uni hukumronlikka undaydi. Amir Temur Chig'atoy ulusini o'z bayroqlari ostida birlashtirib, davlatchilik madaniyatining ancha boy merosiga ega edi, u o'z hukumronligi ostiga O'rta Osiyoning uchta sivilizatsiyasi: Avesto, Qur'on va O'rta Osiyo ko'chmanchilari merosini uyg'unlashtirishga muvoffaq bo'ldi [4].

Uchinchi zona–Amir Temur hukumronligi kezlarida kuch–qudratiga rahna soluvchi dengiz va qirg'oq bo'yi davlatlari kiradi. Vaholanki, XIV asr Yevrosiyo mintaqasida asosan uchta geosiyosiy jihatdan gegemon davlatlar Oltin O'rda, Turon imperiyasi va Usmoniylar Sultonligi kabi qudratli davlatlar mavjud edi. Ushbu mintaqani o'rab turgan dengiz qirg'oqlari hisoblangan. Yevrosiyo mintaqasining “markaziy nuqta”si evolyutsiya va uning tuzilish segmentlarining doimiy ravishda o'zgarib turganligi geosiyosiy harakatchanlikni ko'rsatadi. Markaziy Yevrosiyo mintaqasi bugungi kunda Makkender ta'kidlaganidek “Hardland” ya'ni “yurak” Markaziy Osiyo hududi hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu mintaqa geosiyosiy nuqtayi nazardan Yevrosiyo mintaqasining koridor zonasidir [5, B. 248]. Yevrosiyo mintaqasining geosiyosiy chegarasi va uning segmentlari Yevropa va Osiyoni birlashtirgan ulkan geosiyosiy mintaqadir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Yevrosiyo mintaqasida geosiyosiy va geoiqtisodiy funksiyani keng tarqalishiga imkon beradi. Yevrosiyo qit'a sifatida dunyoning ikki qismidan–Yevropa va Osiyodan iborat bo'lib, Yevrosiyo mintaqasi jug'rofiy hududdir. XXI asrda vujudga kelgan geosiyosiy vaziyat butun Yevrosiyo qit'asining geosiyosiy va geoiqtisodiy makonini mintaqaviy tuzilish tamoyillarini o'rganishga yangi turtki berdi. Shu munosabat bilan Xelford Makkender va keyinchalik Nikolas Spykman tomonidan taklif qilingan tushunchalar yana alohida ahamiyat kasb etadi. Yevrosiyo mintaqasida birga bo'lgan xalqlarning etnik, tarixiy o'tmishiga asoslanadi. Barchasi bu mintaqada uzoq vaqt birga yashaganligi natijasida etnik aralashib ketgan. Yevrosiyo mintaqasida tabiiy, madaniy, til, iqtisodiy va texnologik munosabatlarda zarur va uyg'unligi bilan bir-biriga bog'liq hisoblanadi. Albatta bu jarayonlar Yevrosiyo mintaqasining iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlanishiga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. 14-yanvar 2021 Prezident Sh.M.Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini taqdirlashdagi nutqidan
2. E.Ismoilov, V.Парава Центральная Евразия: геополитическое переосмысление. Stokgolm.: CA&CC Press. 2010. 168 b
3. Zotov O. A. Temur geosiyosati va XXI asr bo'sag'asida siyosiy taraqqiyot tabiati. «Fidokor», 2000, 5 dekabr..
4. Sulaymonov R. Сходства и отличия образов Амира Темура и Чингизхана. История Центральной Азии. № 3/2023. 28 б.
5. Alimardonov T.T Amir Temur imperiyasi. T.: Yangi asr avlod, 2021. 320 b.